



Volume 1, Issue 1(18), 2024

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputys Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, dotsent

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali
Журнал “Физико-технологического образование”
“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

<i>№</i>	<i>MUALLIFLAR / AUTHORS/ АВТОРЫ</i>	<i>MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</i>	<i>SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ</i>
1	<i>Qurbonov A.R. Ismoilov S.</i>	<i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>	<i>5-10</i>
2	<i>Utambetov B. T., Qalmuratova X. A., Ibraymova S. B.</i>	<i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>	<i>11-17</i>
3	<i>Ibroximov M. A., Axmadjonova S. A.</i>	<i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>	<i>18-24</i>
4	<i>Xolmatov Pardaboy Qorabekovich</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>	<i>25-29</i>
5	<i>Jabborov A. Xolmatov P.Q.</i>	<i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>	<i>30-38</i>
6	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>	<i>39-42</i>
7	<i>Oltmishev Toxirjon Turgunovich</i>	<i>Uzuzq chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>	<i>43-48</i>
8	<i>Umarov R.T., Isoqov Sh.T.</i>	<i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>	<i>49-53</i>
9	<i>Umarov R.T., Nazarov O.</i>	<i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>	<i>54-58</i>
10	<i>Sharipov A.A., Jaloldinova S.X. Qalmuratova X.A., Islomova N.Sh.</i>	<i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>	<i>59-62</i>
11	<i>Po‘latov J.H., Alqorov Q.X.</i>	<i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i>	<i>63-66</i>
12	<i>Eshmatova Sh.T., Alqorov Q.X.</i>	<i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>	<i>67-70</i>
13	<i>Orishev J.B., Jumanova S.H.</i>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>	<i>71-78</i>
14	<i>Ortiqova O.Sh., Aqbo‘tayeva B.M.</i>	<i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>	<i>79-82</i>

15	<i>Xolmatova M.Q, Alqorov Q.X.</i>	<i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning ahamiyati</i>	83-88
16	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik xususiyatlari</i>	89-91
17	<i>Xotamov J.A., Ummatova S.Z.</i>	<i>Kengayuvchan koinotning kosmologik modellari</i>	92-94
18	<i>Tursunboyev O.V., Quvondiqov M.K., Boboqulova Z.V.</i>	<i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum” strategiyasi asosida muammoli masalalarni tahlil qilish</i>	95-99
19	<i>Ortiqova O.Sh., Xudoyqulova Z.M.</i>	<i>Kostyum detallarini chizish va modellarning dekorativ bezatilishi</i>	100-105
20	<i>Abdirayimova Dilnoza Azamat qizi</i>	<i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga oid pedagogik jarayonlar</i>	106-111

BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA MUSAVVIRLIK SAN’ATI

Umarov Rahim Tojiyevich¹, Nazarov Odil²

*¹A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası
o’qituvchisi, Texnologik ta’lim 1-kurs magistr
e-mail: umarovr@jdpu.uz*

Annotatsiya: *Maqolada Bobur va boburiylar davrida Hindistonda musavvirlik san’atining taraqqiyoti va rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar: *Musavvirlik san’ati, rangtasvir san’ati maktabi, saroy rassomlari, nafis rasmlar, hattot, Hind miniatyura rassomligi*

Аннотация: *В статье рассматривается прогресс и развитие искусства живописи в Индии в период Бабур и Бабур.*

Ключевые слова: *Искусство живописи, школа живописи, придворные художники, прекрасные картины, шляпа, индийская миниатюрная живопись.*

Annotation: *The article discusses the progress and development of the art of painting in India during the Babur and Baburi period.*

Keywords: *Art of painting, school of painting, court painters, fine paintings, hattot, Indian miniature painting*

Sharqning benazir farzandi, buyuk hukmdor, o’zbek nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan mumtoz shoir, hayvonot va nobotat olamining bilimdoni, serqirra ijod sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur yetuk hattot va rassom ham hisoblanadi.

Maqolada Bobur va boburiylar davrida Hindistonda musavvirlik san’atining taraqqiyoti va rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

XVI asrning ikkinchi yarmida va XVIII asrlarda boburiylar nafis rangtasvir san’ati maktabi Sharq va Yevropa maktablari asosida kamol topdi. Bu davrda Hind miniatyura maktabiga Bobur va uning o’g’li Xumoyun asos soladi. Bobur rassomlik va hattotlikka juda qiziqqan.

Shox asar hisoblanmish “Boburnoma”dan ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur odamlar qiyofasini, tabiat manzaralarini xuddi yetuk rassomlarday tasvirlagan. Shuning uchun ham hind rassomlari bu kitobning forscha tarjimasi qo’lyozma nusxalarini bir necha marta ko’plab nafis rasmlar bilan ziynatlaganlar.

Tarixdan ma’lumki Bobur Movaraunnaxrdagi hukmronlik davrida temu riylar kutubxonalaridan qolgan har bir nodir qo’lyozmani, hatto uning varaqlarini yig’ib, jamlab, keyinchalik hammasini Hindistonga olib ketgan. Albatta, bunday nodir qo’lyozmalar hind miniatyura maktabining shakllanishida juda katta rol o’ynagan. Chunki, hind rassomlari o’z mahoratini oshirish maqsadida saroy kutubxonasidagi O’rta Osiyodan keltirilgan rasmlardan nusxa ko’chirib rassomlik sirlarini o’rganganlar.

Boburning o’g’li Nasiriddin Muhammad Humoyun (1530-1542, 1555-1556) hind rassomchiligi tarixida saroy qoshidagi rassomlik ustaxonasining asoschisi sifatida tanilgan.

Hindistonning Patna shahridagi Xudo Baxsh nomli Sharq qo’lyozmalari kutubxonasida saqlanayotgan forscha «Tarixi xonadoni timuriya» nomli asar qo’lyozmasida qayd etilganidek, Humoyun hamda o’g’li Akbar ham musavvir Abdusamad Sheroziydan musavvirlik sirlarini o’rganganlar.

Boburning nabirasi Akbar ham hattotlik va rassomchilik taraqqiyotiga juda katta e’tibor bergan. Boburiylar saroyi qoshidagi maxsus rassomlik ustaxonasining yanada taraqqiy etishi Akbarshoxning taxminan yarim asrlik hukmronlik davriga to’g’ri keladi. Akbarshox haftaning ma’lum kunida musavvirlik ishlarini nazoratdan o’tkazib, muvafaqqiyatga erishgan san’atkorlarga in’omlar tuhfa etgan yoki ularning oylik maoshini ko’paytirib turgan. Chunki Akbar, kishilar bilim doirasini kengaytirishdagi rassomlik va hattotlikning rolini juda muhim va zavq olish manbai deb hisoblab, rassomlikni ta’qib etuvchi o’ta mutaasib ruhoniylardan dadil himoya qilgan.

Shuni alohida qayd etish zarurki, bu davrda hind rassomlari faqatgina saroy rassomlik ustaxonasidagina yig’ilmay, ayrim nufuzli shaxslar huzurida ham yashab jod etganlar. Tarixchilar atoqli sarkarda, shoir, tarjimon va homiy Abdurahimxon Xoni Xonon, shoir Bayramxon o’g’li («Boburnoma»ni forschaga tarjima qilgan), shaxsiy kutubxonasida ham bir guruh rassomlar va hattotlar ijod etganini yozib qoldirganlar.

Umuman, XVI asrning ikkinchi yarmi hind miniatyura rassomligi tarixiga asosan nodir qo’lyozmalarga rasm ishlash davri bo’lib kirdi. Akbar hukmdorlik qilgan davrining oxirida uning kutubxonasini ko’zdan kechirgan yevropalik sayyoh u yerda 24000 jild qo’lyozma kitob jamlanganligini yozib qoldirgan. Albatta, bu kitoblarning ko’pchiligi hind rassomlari tomonidan rasmlar bilan ziynatlangan edi. Hozir bu noyob san’at durdonalari dunyoning turli qo’lyozma fondlariga tarqalib ketgan. Akbar hukmdorligidan keyin ham qo’lyozmalarni rasm bilan ziynatlash davom etgan bo’lsa-da, keyin bu davrdagidek ko’p rasmlil nodir qo’lyozmalar yaratilgani ma’lum emas.

Akbarning o’g’li Nuriddin Muhammad Jahongir (1605-1627) davrida alohida qog’ozlarga, mustaqil mavzuga bag’ishlangan rasm ishlash keng odat tusiga kiradi. Jahongir o’zi haqida yozishicha, u hamkorlikda yaratilgan rasmlarda har bir rassom qaysi detalni chizganini ajrata olgan. Bu uning rassomlik san’atini chuqur tushunganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, u rassomlikka juda qiziqib, shahzodalik paytidayoq, Hirotdan kelib qolgan Oqo Rizo ismli rassom va uning o’g’li Abulhasanni o’z homiyligiga olgani ma’lum. Jahongir rasm to’plashga shunchalik qiziqqanki, maxsus odamlarni Movaraunnahr, Xuroson va Erondan rasmlil qo’lyozmalarni sotib olish uchun yuborib turgan. U saroyda maxsus nigorxona tashkil qilib, eng mo’tabar mehmonlarga rasmlarni shaxsan o’zi olib yurib ko’rsatgan. Shuningdek, Jahongir G’arbiy Yevropadan keltirilgan yaxshi rasmlarni juda qadrlab, ulardan hind

rassomlariga nusxa ko’chirishlarini topshirganligini Angliyaning Hindistonga yuborgan elchisi ser Tomas Roy yozib qoldirgan.

Jahongirning o’g’li Shahobiddin Muhammad Shohi-Jahon (1628-1658) san’at sohasidagi asosiy e’tiborini me’morchilik taraqqiyotiga qaratsada, bo’sh vaqtlarini Saroy kutubxonasidagi nodir qo’lyozmalarni mutola qilish bilan o’tkazgan. Shuning uchun bo’lsa kerak, bir paytlar boburiylar kutubxonasining faxri hisoblangan, hozirda dunyoning turli fondlariga tarqab ketgan nodir qo’lyozmalarda Shohi-Jahonning dastxat eslatmalarini uchratish mumkin. Shohi-Jahon davrida ham alohida rasmlar yaratish davom etdi. Lekin bu davrda yaratilgan rasmlarda podshoh va a’yonlarning haddan tashqari boylikka va dabdababozchilikka berilganligi o’zining badiiy aksini topgan. Rassomlardan Govardhan, Bichitr, Chitarman ismli mahalliy san’atkorlar bilan bir qatorda Muhammad Nodir va Muhammad Murod ismli samarqandlik rassomlar ham yuksak badiiy asarlar yaratganlar. Rassomlarning asarlarida Sharq miniatyura xususiyatlari G’arbiy Yevropa rassomligi an’analari bilan uyg’unlashib perspektiva, yorug’lik va soya ko’p uchraydi.

Avrangzeb Olamgir (1658-1707) davrida Saroy rassomligi san’ati o’z holiga tashlab qo’yildi. Shu davrda Hindistonda bo’lgan fransuz sayyohi va vrachi Fransua Bernyening yozishicha, Saroy rassomlarining mahorati juda yuksak bo’lib, mahorat ta’minoti ham yaxshi bo’lgan. Ammo oddiy rassomlarning ahvoli juda ayanchli bo’lgan. Zadagonlar rassomlarni yollab, rasm bitganidan so’ng istaganicha haq to’lab, gohida haq to’lamay quvib yuborganlar. XVIII asr davomida yuz bergan boburiylar saltanatidagi tushkunlik miniatyura san’atining ham tanazzuliga bo’lgan asosiy sabablardan biridir. Bu davrdagi rasmlarda o’tmishdagi mashhur san’atkorlar asarlariga taqlid kuchaydi. Hukmronlar homiyligi susayganligi sababli rassomlar oddiy xalq hayotini ko’proq aks ettirdi. Hind miniatyura rassomligi bu davrda juda ko’p mahalliy rassomlik maktablarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi davrda O’rta sharq qo’lyozmalariga ishlangan mo’jaz rasmlar bizning madaniyatimiz xazinasiga hisoblanib, uning ijodkorlari, betakror musavvirlar ijodidan bohabar bo’lishimiz va bu san’at an’alariga ergashgan holda zamonaviylik asosida qayta tasvirlashimiz bizning hayotiy zaruratimiz hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati

1. G’aniyeva S. Boburiylar sulolasiga mansub ijodkorlar. № 7 / 2020 y. Jamiyat
2. Turg’un Fayziyev, Temuriylar shajarasi.-T: Yozuvchi,1994y., 352 b.
3. Qosimov U., Umarov R.T. Ulug’ zotlarning izin bosgan er. Jizzax haqiqati, 2019 yil 13-fevral, №14 ,4-sahifa.
4. Umarov R.T., Irmatov P.N., O’ralova F.A. Boburning she’rlarida insoniy fazilatlarining ulug’lanishi. “Abay Qo’nanboyev va sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman material lari. Jizzax, 2020 y. 16-17 oktyabr, 296-298 b.

